

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Orol dengizi mintaqasi iqlimiga mos keladigan quyosh energiyasi bilan ishlaydigan xona havosini tozalash qurilmasini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Orol dengizi mintaqasi havosida eng ko‘p uchraydigan va inson salomatligi yoki atrof-muhit uchun zararli bo‘lgan elementlar aniqlanadi va zamonaviy usullar (elementlar tahlili, ion xromatografiya, oksidlanish potentsiali) yordamida fizik xususiyatlari (zarrachalar o‘lchamlari bo‘yicha soni, konsentratsiyasi) tahlil qilinadi; - mintaqadagi atmosfera va xona havosidagi chang zarrachalarining turli meteorologik va iqlim sharoitlarida (harorat, shamol tezligi va yo‘nalishi, chang bo‘ronlari) o‘zgarishi va o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi; - mavjud xona havosini tozalash texnologiyalari asosida mintaqqa iqlimiga moslashtirilgan va takomillashtirilgan havoni kompleks tozalash texnologiyasi ishlab chiqiladi; - Orolbo‘yi mintaqasining iqlim sharoitlari va o‘ziga xos ehtiyojlariga javob beradigan muqobil quyosh energiyasidan quvvatlanadigan xona havosini tozalash qurilmasining namunasi tayyorlanadi; - xona havosi holatini doimiy nazorat qilish avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqiladi va qurilma bilan integratsiya qilinadi; - qurilmaning energetik ko‘rsatkichlari asosida quyosh stansiyasi quvvati aniqlanadi; - havoni tozalash qurilmasini o‘rnatish, ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘llanma va zararli havodan himoyalalanish bo‘yicha o‘quv materiallari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.